

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHADMONOV AZIZ AZIMOVICH

**GLOBALLASHUV DAVRIDA ERKINLIK FENOMENINING
TRANSFORMATSIYASI (IJTIMOIY- FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Shadmonov Aziz Azimovich

Globalashuv davrida erkinlik fenomenining transformatsiyasi
(ijtimoiy-falsafiy tahlil).....5

Шадмонов Азиз Азимович

Трансформация феномена свободы в эпоху глобализации (социально-
философский анализ).....23

Shadmonov Aziz Azimovich

Transformation of the phenomenon of freedom in globalization period (socio-
philosophical analysis).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published.....49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHADMONOV AZIZ AZIMOVICH

**GLOBALLASHUV DAVRIDA ERKINLIK FENOMENINING
TRANSFORMATSIYASI (IJTIMOIY- FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fal673 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bozorov Mustafu Jabborovich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "31" Mart soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (843 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" Mart kuni tarqatildi.

(2026-yil "13" Mart dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro‘y berayotgan globallasuv jarayoni, texnologik inqilob va iqtisodiy integratsiya natijasida insonning ijtimoiy, siyosiy va madaniy erkinligi iqtisodiy manfaatlar, axborot oqimi va sun‘iy intellektning ta‘siri ostida qayta talqin qilinib, erkinlik fenomeni nafaqat shaxsiy qadriyat, balki global ijtimoiy jarayonlarning bosh mezoniga aylandi. Bu jarayonda erkinlikning chegaralari, axloqiy mas‘uliyat va ijtimoiy uyg‘unlik bilan bog‘liq muammolar hamda zamonaviy inson qarashlarini erkin ifoda etishi va ilgari surishi dunyo qiyofasining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Shu ma‘noda erkinlik fenomenining transformatsiyasi bilan bog‘liq o‘zlikni anglash, axloqiy pozitsiyani tanlash, o‘z qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish imkoniyatiga qaratilgan mexanizmlarini ishlab chiqish, globallasuv jarayonlarining destruktiv ta‘sirini kamaytirish, ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatish xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va tadqiqot institutlarida erkinlikning axborot jamiyati, neoliberalizm, postmodernizm, geopolitika va transgumanizm doirasida o‘zgarib borish xususiyatlari, globallasuv sharoitidagi transformatsiyasi nazariy-metodologik va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda Erkinlikning texnologik va iqtisodiy determinatsiyasi, shaxsiy tanlov va sun‘iy ong o‘rtasidagi ziddiyatlar erkinlikning globallasuv sharoitidagi aksiologik va ontologik asoslarini, uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini, reinterpretsiyasini asoslab berishni talab qilmoqda. Shuning uchun globallasuvning inson erkinligi paradigmasiga konstruktiv va destruktiv ta‘sirini tahlil qilish, erkinlikning deterministik mohiyati va inson tabiatidagi tanlov, iroda, intilish, murosa, kelishuv va manfaatlarni korreksiya qilish kompetensiyalarining hamda erkinlik gipotezalarining tafakkur taraqqiyoti bosqichlarida insonparvarlik, erkparvarlikka bog‘liqligini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekistonda inson erkinligi, huquq va manfaatlarini himoya qilish, adolatli jamiyat barpo etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib, “Inson qadri uchun” tamoyili asosida erkinlikni ma‘naviy, huquqiy va axloqiy jihatdan ta‘minlashga qaratilgan islohotlar chuqurlashtirilmoqda. “... Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida inson qadr-qimmatini huquqlari va erkinliklarini himoyalash, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun kuchlarni birlashtirish, xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berish kabi tamoyillar kishilik jamiyatini barqaror rivojlantirishning “uchta asosiy ustuni” sifatida belgilab qo‘yilganini ta‘kidlash o‘rinlidir”¹. Shu boisdan, postmodern jamiyatga yangi zamon qadriyatlarini singdirish, yoshlar ongida erkinlik tuyg‘usini shakllantirish, globallasuv sharoitida erkinlikni ta‘minlashning metodologik va konseptual asoslarini, Yangi O‘zbekistonning yoshlari ongiga halollik, adolat, sabr, qanoat, diyonat, xayrixohlik, riyozat, vijdon, haqiqat, muhabbat va sadoqat singari axloqiy tamoyillarni intensiv ravishda shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlari ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2024. -B. 32.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041 son “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-fevraldagi 83-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Insonning erkinlikka va ozodlikka intilib yashash istagi va uning imkoniyatlariga demokratik taraqqiyot yo‘lidan borayotgan davlatlarda nisbatan ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Erkinlik muammosi xorijlik olimlar I.Berlin, M.Polenz, M.Fred, R.Keyn, D.Braynt, Dj.Milton, X.Olkott, D.Vurxov, M.Kwiek, V.Sadurski, H.Loewi asarlari va tadqiqotlarida turli daraja va yo‘nalishlarda tadqiq qilingan².

Bu borada Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari – M.Abramova, R.Apresyan, V.Baryshkova, N.Vakulich, Yu.Davidova, A.Karimova, V.Kozlovskiy, M.Mamardashvili, O.Nogovitsina, K.Novikova, E.Pozdnyakova,

² Berlin I. *Философия свободы. Европа* / пред. А. Эткинда. – Москва: Новое литературное образование, 2001. – 448 с; Polenz M. *Freedom in Greek Life and Thought. The History of an Ideal.* – Dordrecht. 1966. – 220 p.; Frede M. *A Free Will. Origins of the Notion in Ancient Thought.* – London: 2011. – 224 p.; Kane R. *A Contemporary Introduction to Free Will.* – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 141-189 p.; Брайант Дж, Томпсон С. *Основы воздействия СМИ (Fundamentals of Media Effects).* – Москва: Издательский дом “Вильямс”, 2004. — 432 с.; Alcott, H. & Gentzcow, M. (2017). *Social Media and Fake News in the 2016. Elections. Journal of Economic Perspectives* 31(2); Voorhoof D., & Cannie, H. (2010). *Freedom of Expression and Information in a Democratic Society. International Communication Gazette*, 72(4-5), 407-423.; Marek Kwiek. *Freedom and Globalization. Freiheit und Verantwortung. Moral, Recht und Politik.* Frankfurt a/Main and New York: Peter Lang Scientific Publishers, 2002. pp. 107-116.; Sadurski W. (1999) *Freedom of Speech and its Limits.* Dordrecht: Kluwer; Arnold H. Loewy, *Freedom of Speech as a Product of Democracy*, 27 U. Rich. L. Rev. 427 (1993). Available at: <http://scholarship.richmond.edu/lawreview/vol27/iss3/4>.

V.Samchenko, A.Skripnik A.Stolyarova, G.Tulchinskiy, V.Ustyantseva, V.Timoshin, I.Myurberg, L.Omarova, M.Nikolayevna, K.Igorevich, V.Fedotova ilmiy tadqiqotlarida erkinlik hodisasining turli falsafiy jihatlarini, xususan soʻz erkinligi, eʼtiqod erkinligi, tafakkur erkinligi kabi jihatlarini ochib berishga harakat qilganlar³.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda turli sohalarga oid ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyati yaratildi. Xususan erkinlikning falsafiy jihatlarini borasida ham bir qator ishlar olib borildi. Ayniqsa, A.Choriyevning ilmiy izlanishlarida inson falsafasi mustaqil shaxs muammosi bilan bogʻliq holda, A.Erkayev asarlarida insonning tafakkur erkinligi muammosi, T.Alimardonov asarlarida erkinlik hodisasining jamiyatimizda tutgan oʻrni va ahamiyati haqida qarashlar bildirib oʻtilgan. Erkinlikning turli davrlarda inson hayotida va jamiyatda tutgan oʻrni, ahamiyatini oʻrganish borasida ish olib borayotgan I.Ergashev, J.Shonazarov, D.Raximjanova, H.Oripov tadqiqotlarida qimmatli fikr va mulohazalarni bildirganlar. M.Qirgʻizboyev, S.Otamurodov, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev, F.Musayev ilmiy tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatining oʻziga xos xususiyatlari va belgilari, erkinlik tamoyili oʻrni masalasida fikr va mulohazalar bildirilgan. A.Huseynova, Q.Nazarov, S.Choriev, Sh.Negmatova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda globallashtirish, taraqqiyot jarayonida erkinlikning oʻrni tadqiq etilgan⁴.

Mazkur ilmiy tadqiqotni olib borishda yuqorida nomlari zikr etilgan, shuningdek, boshqa oʻzbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Ushbu tahlillarga asoslanib, yangi taraqqiyot jarayonida erkinlikning xususiyatlari,

³ Тимошин.В.В. Становление свободы в социально-философском дискурсе современного общества: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Саранск: 2008 -18 с.; Мюрберг И.И. Политическая свобода: проблема формирования дискурсивного пространства в Модерне: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Москва: 2011 – 39 с.; Омарова Л.Б. Дискурсивные особенности категории свободы в современном обществе: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Мытищи: 2018. -27 с.; М.Д. Николаевна Феномен свободы в социокультурном пространстве трансформирующегося общества: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Ставрополь: 2014. -27 с.; К.Я.Игоревич. Социально – философский анализ трансформации феномена свободы в условиях техногенной цивилизации: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Москва: 2020. -26 с.

⁴ Чориев А. Инсон фалсафаси. Муस्ताқил шахс. –Тошкент: Чинор, 2002. - 204 б.; А.Эркаев. Тафаккур эркинлиги. –Тошкент: “Маънавият” 2007. -160 б.; Алимардонов Т. Эркинлик руҳи. – Тошкент: Нишон-Ношир, 2014. – 250 б.; Ergashev I.S. Shaxs maʼnaviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy masʼuliyat uygʻunligi. f.f.n ... diss. avtoref. -T.: 2011, -66 b.; Shonazarov J.Sh. Shaxs erkinligi jamiyatni demokratlashtirishning muhim omili. f.f.n ... diss. avtoref. -T.: 2012. - 68 b.; Raximjanova D.S. Antik davr falsafasida erkinlik fenomeni transformatsiyasi. f.f.n ... diss. avtoref. -T.: 2022. - 70 b.; Oripov H. A. Demokratik jamiyatni rivojlantirishda soʻz erkinligining ahamiyati (ijtimoiy-falsafiy tahlil). f.f.n ... diss. avtoref. –Samarqand: 2024. -65 b.; Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. — Т.: Ўзбекистон, 2010. – Б. 340; Отамуротов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Тошкент: Оʻzbekiston, 2013. – Б. 456; Матибаев Т. Ижтимоий ҳамкорлик ва демократия: давлат ва жамият ҳаётининг барқарор тараққиёт йўлида. “Билим ва интеллектуал салоҳият”, - Тошкент: 2019.-123 б.; Жўраев С. Фуқаролик жамияти тарихига бир назар. Фуқаролик жамияти: назария ва амалиёт. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2003. -180 б.; Холбеков А.Ж. Ўзбекистонда жамиятнинг демократлашуви жараёнида ижтимоий адолатни амалга ошириш муаммолари (сиёсий-социологик таҳлил). –Тошкент: 2001. – Б. 276; Алимова З.И. Ижтимоий адолат тамойиллари ва унинг ислом динида намён бўлиш хусусиятлари: фалсафий таҳлил. –Тошкент, 2006. –Б. 152; Яхшиликов Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Тошкент: Чўлпон, 2018. -Б. 722; Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий масалалари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. –Б. 270; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019; Negmatova Sh.Sh. Oʻzbekistonda sogʻlom raqobatni rivojlantirishning maʼnaviy, axloqiy va huquqiy jihatlarini. –T: Fan, 2016; Бекмуродова Г.Х. Замонавий ижтимоий деструкция мазмуни ва шакллари. Монография. — Қарши: Фан ва таълим, 2022. – 132 б.; Тешабоев М. Ёшларда ахлоқий маданиятни такомиллаштириш // Жамият ва бошқарув, 2010, №3. – Б.31-33; Sultanov S. Ijtimoiy adolatni tushunishga zamonaviy yondashuvlar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences- 3(1/2), Jan., 2023 – B.136.

tarnformatsion jihatlarini mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan deyish mumkin. Shuning uchun mazkur tadqiqotda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlardan farqli ravishda erkinlik muammosining demokratik davlatga oid xususiyatlari, hozirgi jamiyatga transformatsiyasi va namoyon bo'lish shakllarini tadqiq etishga alohida diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi erkinlik fenomenining zamonaviy sivilizatsion rivojlanishga xos o'zgaruvchanlik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

erkinlik fenomenining tarixiy-falsafiy ildizlari va konseptual talqinlarini tahlil qilish;

Sharq va G'arb falsafasida erkinlikning falsafiy-huquqiy asoslarini qiyosiy tadqiq etish;

globallashtirish davrida erkinlikning texnologiya, axborot va raqamli omillar ta'sirida o'zgaruvchanlik xususiyatlarini asoslash;

kibermakonda virtual erkinlik, uning ma'naviy asoslari va gumanistik mohiyatini ochib berish;

inson erkinligi va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni aniqlashtirish;

fuqarolik jamiyati sharoitida ixtiyor erkinligining ekzistentsial mohiyati va Yangi O'zbekiston erkinlik, adolat va inson qadri tamoyillarining fuqarolik jamiyatini qurishdagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida globallashtirish sharoitida erkinlik fenomenining shakllanishi va namoyon bo'lishi jarayonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti erkinlik fenomenining globallashtirish davridagi aksiologik, ontologik va gnoseologik transformatsiyasi, uning inson ongidagi hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq qilishdan tashkil topadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

erkinlik fenomenining adolat, tenglik, mas'uliyat kabi mezonlarini milliy-ma'naviy qadriyatlar (vatanparvarlik, fidoyilik, el-yurtga sadoqat), diniy-axloqiy qadriyatlar (iymon, vijdon va nafsni yengish) mazmuniga singdirish orqali jamiyatda sodir bo'layotgan ma'naviy tanazzul, iste'molchilik kayfiyati, madaniy standartlashuv kabi destruktiv ta'sirini yumshatishga hamda ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi asoslangan;

yoshlar ongida erkinlik hissini shakllantirishda uning ijtimoiy-deterministik mohiyati (qarorlarini ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va huquqiy javobgarlik asosida qabul qilish) asosida tanlov, iroda, intilish, murosa, kelishuv kabi sifatlarni

korreksiya (tanqidiy baholash, ichki instinktlarni boshqarish, manfaatlar o'rtasida muvozanatni saqlash) qilish kompetensiyalari aniqlashtirilgan;

globallashuv sharoitida erkinlikni ta'minlashning metodologik (aksiologik, sinergetik, komparativ) va konseptual (insonparvarlik, erkparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan) gipotezalari asosida erkinlikni kafolatlash, siyosiy-huquqiy tizimning samaradorligini ta'minlash, insonning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy mas'uliyati va gumanistik qadriyatlarni idrok etish omillari ochib berilgan;

Yangi O'zbekistonda erkinlik fenomeni asosida yoshlar ongida halollik, adolat, sabr, xayrixohlik, vijdon, haqiqat, muhabbat va sadoqat singari axloqiy tamoyillarni shakllantiruvchi ijtimoiy-ma'naviy mexanizmlarning shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, ijtimoiy konsensus kabi tamoyillari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

globallashuv jarayonida erkinlik fenomenining inson ma'naviy-ruhiy olami, istak va intilishlariga oid xususiyatlaridan unumli foydalanish, davlat tizimidagi huquqiy normalardan inson erkiga doir qismlari orqali shaxsning qadr-qimmatini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

erkinlik asosida ezgu istaklarni uyg'otish, yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirish, axloqiy tanazzulning oldini olish, jamiyatdagi begonalashuvni, yolg'izlikni bartaraf etish uchun faol ijodkorlik ko'nikmasini shakllantirish zarurati asoslangan;

"erkinlik va mas'uliyat uyg'unligi"ni insonning ma'naviy va ijtimoiy kamolotini ta'minlovchi tamoyil sifatida baholash, ta'lim, madaniyat va davlat siyosatida inson qadri, erkin fikr va ijtimoiy javobgarlikni uyg'unlashtirish, davlat boshqaruvi, ijtimoiy siyosat va fuqarolik jamiyati faoliyatida inson erkinligini himoya qilishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definityasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g'oyalardan globallashuv davrida erkinlik fenomenining ontologik, aksiologik va gnoseologik asoslarini ochib berishda, tarixiy-evolyutsion manbalari bilan bir qatorda uning zamonaviy transformatsion jarayonlari, ya'ni insonning raqamli dunyo, texnogen madaniyat va axborot asrida o'zini anglash mexanizmlarini yangicha talqin qilishda, uning umumiy aksiologik mazmuni, inson qadri va mas'uliyati bilan bog'liq jihatlari, mas'uliyat, ong va tanlov bilan dialektik aloqadorligini ochib beruvchi tadqiqotlarda metodologik asos sifatida, shuningdek, shaxs erkinligini tartibga solishda, yangi qarash va yondashuvlarni ilgari surish, bu sohadagi islohotlarning amaliyotga tatbiq

etish jarayonlari hamda targ'ibot-tashviqot ishlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalardan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida inson erkinligi, mas'uliyati va adolat tamoyillarini uyg'unlashtirishga, davlat boshqaruvi, ta'lim siyosati, inson huquqlarini rivojlantirish sohalarida tahliliy vosita sifatida, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson omiliga tayanish, aniq amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishda, erkinlik g'oyasining asl mohiyatini aholining turli qatlamlari ongiga singdirish va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati samaradorligini oshirishda, xususan, ochiqlik tizimini takomillashtirish, yoshlar siyosatida siyosiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari, seminar va trening dasturlarini ishlab chiqish, shaffof xizmatlarni rivojlantirishda, oliy ta'limda "Falsafa", "Ijtimoiy falsafa", "Davlat va huquq nazariyasi", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda o'quv-metodik manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Globallashuv davrida erkinlik fenomenining transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish bo'yicha olingan natijalar asosida:

erkinlik fenomenining adolat, tenglik, mas'uliyat kabi mezonlarini milliy-ma'naviy qadriyatlar (vatanparvarlik, fidoyilik, el-yurtga sadoqat), diniy-axloqiy qadriyatlar (iymon, vijdon va nafsni yengish) mazmuniga singdirish orqali jamiyatda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlarining ma'naviy tanazzul, iste'molchilik psixologiyasi, madaniy standartlashuv kabi destruktiv ta'sirini yumshatishga hamda ijtimoiy barqarorlikka mafkuraviy immunitet va ijtimoiy muloqot madaniyati sifatida ijobiy ta'sir ko'rsatishiga oid ilmiy yangilik hamda taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11 raqamli "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdistsiplinar platformasini yaratish" (2020-2022 yy) amaliy tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 12-avgustdagi 04/11-6195-son ma'lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini yanada takomillashtirishga va yoshlar ongida erkinlik tuyg'usini shakllantirishga, yoshlar ongida halollik, adolat kabi axloqiy tamoyillarni rivojlantirishga xizmat qilgan;

yoshlar ongida erkinlik tuyg'usini shakllantirishda erkinlikning ijtimoiy-deterministik mohiyati (qarorlarini ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy meyorlar va huquqiy javobgarlik asosida qabul qilish) asosida tanlov, iroda, intilish, murosa, kelishuv kabi sifatlarni korreksiya (tanqidiy baholash, ichki instinktlarni boshqarish, manfaatlar o'rtasida muvozanatni saqlash) qilish kompetensiyalariga oid nazariy xulosalar va metodologik tavsiyalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 2024-yilga mo'ljallangan yo'l xaritasidagi "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" yo'nalishi 4-bandi "Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada takomillashtirish, O'zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha xabga aylantirish"da foydalanilgan (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2024-yil 21-avgustdagi 01-27/415-son ma'lumotnomasi). Natijada,

partiyaning tadbirlarini amalga oshirishda va partiya faoliyatidagi dolzarb masalalarni samarali hal etishga xizmat qilgan;

erkinlikni ta'minlashning metodologik (aksiologik, sinergetik, komparativ) va konseptual (insonparvarlik, erkparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan) gipotezalari asosida globallashuv sharoitida erkinlikni kafolatlash siyosiy-huquqiy tizimlarning samaradorligi, insonning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy mas'uliyati va gumanistik qadriyatlarini idrok etishiga bog'liqligiga oid xulosa hamda taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-ma'rifiy muassasalar nomoddiy milliy merosni rivojlantirish sho'basidan I-203-4 raqam "Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirish" (2022-2023 yy) fundamental loyiha doirasida joriy qilingan millatlararo munosabatlarini yo'lga qo'yish va aloqalarni mustahkamlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 27-iyundagi 02-14-06-898-son ma'lumotnomasi). Natijada, globallashuv jarayonida erkinlik fenomenini o'rganish orqali hozirgi zamon jamiyat hayotidagi inson ma'naviy-ruhiy olami, istak va intilishlariga oid g'oyalardan unumli foydalanishga va davlat tizimidagi huquqiy normalardan shaxsning qadr-qimmatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda erkinlik fenomeni asosida yoshlar ongida halollik, adolat, sabr, xayrixohlik, vijdon, haqiqat, muhabbat va sadoqat singari axloqiy tamoyillarni shakllantiruvchi ijtimoiy-ma'naviy mexanizmlarning shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, ijtimoiy konsensus kabi tamoyillariga doir ilmiy, amaliy hamda metodologik g'oyalar, taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yilda efirga uzatilgan "Idrok" ko'rsatuvi hamda Samarqand radiosining "Xayrli kun" eshittirishining dastur ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-avgustdagi 01-07/219-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar ongida halollik, adolat, sabr, diyonat, vijdon kabi axloqiy tamoyillarni intensiv raavishda shakllantirishning ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ush bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 130 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining

ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekt, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Erkinlik fenomenini tadqiq etishning ilmiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida erkinlik tushunchasining falsafiy kategoriya sifatida shakllanishi va rivojlanishi hamda mumtoz falsafiy qarashlar va ta‘limotlarda erkinlik fenomenining tadqiq etilish an‘analari va o‘ziga xosligi ochib berilgan. Shuningdek, erkinlikning jamiyat taraqqiyotidagi roli ijtimoiy adolat, demokratik davlat va ma‘naviy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etilgan. Erkinlikning shaxs kamoloti, ijtimoiy adolat, innovatsion rivojlanish va demokratik institutlar shakllanishidagi funksiyalari ochib berilgan.

Erkinlik inson hayotining eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki erkinlik ijodiy, yaratuvchi, faol, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo‘lib, uning tabiati bilan bog‘liqdir. Inson hayoti g‘oyat murakkab aloqadorliklar orqali kechishi, munosabatlar xilma-xil sohalarda namoyon bo‘lishi tufayli uning erkinligi ham ko‘p qirralidir. Shuning uchun ham “Erkinlik nima?” degan savolga falsafa tarixida uni voqelik olami rivojlanishining zaruriyatlari bilan bog‘lash ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqotda “erkinlik” atamasiga falsafiy lug‘atlarda berilgan izohlar: “Erkinlik – insonning oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish yo‘lida o‘z niyatlari, xohish-istaklari va manfaatlariga mos tarzda faol harakat qilish qobiliyatidir”⁵, - tahlil etilgan. Uning insondagi qobiliyatlardan biri ekanligi asoslangan. Erkinlik qadim-qadimdan buyon hammani ohanrabodek o‘ziga tartib keladi. Chuqurroq o‘ylab ko‘rilsa, insoniyat tarixi ham, alohida inson hayoti ham aslida erkinlik uchun kurashdan iborat ekaniga ishonch hosil qilinadi. Chunki, “Erkinlik g‘oyasi azaldan, din singari ezgu ishlarga undovchi kuchli omil bo‘lib kelgan. Barcha zamonlarda erkinlik g‘oyasining dushmanlari – jaholat va aqidaparastlik, bosqinchilik va aysh-ishrat mayli, hokimyatparastlik va qashshoqlik uning taraqqiyotiga to‘sqinlik qilgan. Xalqlar bosqinchilar zug‘umidan ozod bo‘lishga intilgan davrlarda u ta‘qiqlangan, yashash uchun tinimsiz kurash ketayotgan damlarda insonlar qanchalik bebaho ne‘matni shunchaki yemakka alishib yuborayotganini anglab yetmagan”⁶.

Insonning cheksiz erkinlikka ega bo‘lishi uning hech kim bilan aloqasi yo‘qligi, jonli dunyodan yakkalanib qolishi, shu tariqa moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy manfaatlari ta‘minlanishi imkoniyatlaridan mahrum bo‘lganligini ham bildiradi. U o‘z erkinligi ma‘lum qismidan voz kechishi evaziga turli munosabatlarga kirisha oladi. Bu munosabatlar tizimi orqali boshqa shaxslar bilan o‘zaro muvozanatda yashaydi. Bu muvozanat bo‘lmas ekan inson bu yorug‘ olamda tinch, osoyishta va farovon yashay olmaydi. Inson o‘zining erkinligini tabiatdan, jamiyatdan va insonlar bag‘ridan tashqarida amalga oshira olmaydi. Chunki, butun

⁵ Философский энциклопедический словарь. - М.: «Советская энциклопедия», 1989. - С. 569.

⁶ Жон Актон. История свободы в античности. // Полис, 1993, - №3, - С.108

tarix davomida jamoaviylik an'anasi asosida yashab kelgan insoniyat qavmi bu aqidadan hech qachon voz kecha olmaydi. Shunga ko'ra, *birinchidan*, inson erkinligini nafaqat tashqi omillar, balki ichki intilishlar, ehtiyojlar ham taqozo qiladi; *ikkinchidan*, erkinlikka intiluvchi shaxs o'ziga ko'rsatilayotgan har bir ta'sirga fikran turlicha, o'z imkoniyati darajasida javob bera oladi; *uchinchidan*, shaxsning maqsadga muvofiq faoliyati davrida uning erkinligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va ma'naviy sohalarida ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, shaxs erkinligi subyektiv anglab olishdan tortib, uni obyektiv amalga oshirishgacha bo'lgan turli bosqichlarni bosib o'tadi.

Dissertatsiyada "inson tabiatan siyosiy mavjudotdir"⁷ ekanligi qayd etilgan. XVIII-XIX asrlarda yashab ijod qilgan mumtoz faylasuflarning erkinlik haqidagi fikr va qarshlari ochib berilgan. Gegel fikriga ko'ra, erkinlik ruhga xosdir va uning asosiy tamoyilidir. Ruh mavhum tarkibdan o'zi uchun allaqachon irodali, ammo shu bilan birga hali yetuk bo'lmagan amaliy ruhga, so'ngra o'zi uchun ruhning birligiga bir qator ketma-ket o'zgarishlardan o'tadi. Endi erkinlikka ega bo'lgan ruh haqiqatni o'z mazmuni bilan to'ldirishi mumkin, u qilgan harakatlar uchun barcha javobgarlikni to'liq tushunadi. Ammo ruh qanchalik ko'p erkinlikka ega bo'lsa, u shunchalik noaniq bo'ladi. Shu ma'noda, Gegel haqiqiy erkinlik – bu o'z subyektiviga ko'r-ko'rona bo'ysunmaslik, umumbashariy, obyektivga rioya qilish zarurligining oqilona irodasini anglash⁸, deb hisoblagan.

Erkinlik tushunchasining falsafiy talqinida qadimgi davrlardan boshlab ziddiyatli, qarama-qarshi fikrlar paydo bo'lgan. Masalan, L.Golbax "Inson butun hayoti davomida biron bir daqiqa erkin bo'lmaydi"⁹ deb yozgan bo'lsa, J.P.Sartr esa "Biz har sohada erkinmiz, biz erkinlikka hukm qilinganmiz"¹⁰, degan fikrni bildiradi. I.Kant fikricha esa "Erkinlik amaldagi axloqiy qonunning ishonch yorlig'i orqali mavjud bo'ladi"¹¹. Ushbu qarashlarning mavjudligi faylasuf g'oyalarining paradoksaligi bilan bog'liqdir. Bir tomondan, inson tabiatda yashaydigan, tashqi dunyodan ajralmagan mavjudotdir. Shuning uchun u bu dunyoda mavjud bo'lgan qonunlarga bo'ysunishi shart. Bunday holda, harakat erkinligi haqida gapirishning hojati yo'q. Ammo boshqa tomondan, harakatlarning o'z-o'zidan paydo bo'lishi hali ham kosmik muvozanat qonuniga bo'ysunadigan narsa sifatida qaraladi. Haqiqiy erkinlik-bu hech kimga qaram bo'lmaslik, itoat qilmaslik va hech kim uchun javobgar bo'lmaslik qobiliyatidir. Faqat chinakam erkin odamlar o'zlari va boshqa shaxslar uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olishlari, bundan tashqari axloqiy xulq-atvor mezoni bo'lishlari mumkin. Erkinlikning asosiy kuchi iroda, avtonom iroda bo'lib tashqi sabablarga bog'liq emas.

Shaxs tushunchasi, uning erkinligi va ma'naviyatini shakllantirish Sharq xalqlarida har doim ustuvor masalalardan biri bo'lib kelgan. Allomalar insonning shaxs sifatida shakllanishida odamlarning birlashuvi, aqliy qobiliyatlarini ishga solib, shaxs va jamiyat munosabatlarini yo'lga qo'yish, muhim ahamiyatga ega, deb

⁷ Аристотел. Политика. / пер.С. А. Жебелев. – Москва: Издательство АСТ, 2022. – С. 86.

⁸ Гегель Ф. Философия права. –Москва, Мысль, 1990. -С. 254.

⁹ Гольбах.П.Избранные произведения В 2т. –М.: Мысль, 1963. – С. 20.

¹⁰ Qarang: Сартр Ж-П. Транценденция Эго. –М.: Модерн, 2011. – С. 224

¹¹ Qarang: Иммануил Кант. Критика чистого разума / Пер. с нем. Н Лосского сверен и отредактирован Ц.Г Арзаканяном и М.И. Иткиным; Примеч Ц.Г Арзаканяна – М: Эксмо, 2007 – С. 255.

biladilar. Markaziy Osiyoning buyuk allomalaridan biri bo'lgan Abu Nasr Farobiyning yozishicha: "Har qanday inson o'z xarakteri bilan shunday yaratilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u yakka tarzda bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga egalik qilish uchun insonlar guruhiga ehtiyoj sezadi"¹². Yana bir mashhur alloma Abu Rayhon Beruniy insonning aqliy qobiliyatlari, fikrlash, muhokama qilish, o'ylab topish, xotira olamini yanada tiniqroq tasavvur etish uchun insonga berilgan "Tangri tuhfası"¹³dir, deydi. Haqiqatan ham bu omillar shaxs shakllanishining asosiy jihatlarini tashkil etadi. Shuni ham e'tirof etish zarurki shaxsning jamiyat taraqqiyotidagi amaliy faoliyatini e'tiborga oladigan bo'lsak, u o'z faoliyati natijasida jamiyat taraqqiyotini oldinga yoki tanazzulga qarab borishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchi mulohazalarni tahlil qilish asosida erkinlik kategoriyasini: *"Erkinlik – Insondagi tafakkur, mushohada uyg'unligini ijtimoiy amaliyot bilan bog'langan uning mayl hamda istaklarini ro'yobga chiqarishdagi ijodiy yaratuvchanlik o'z oldiga qo'ygan maqsadi, muddaolarini amalga oshirishdagi ehtiyoji bilan aloqador bo'lgan hayotiy zaruriyat bo'lib, u ijtimoiylikning yig'indisidir"* – deya ta'riflaydi. Erkinlik va mas'uliyat inson ongli faoliyatining ikki tomonidir. Erkinlikni to'g'ri anglash orqali shaxsda mas'uliyat hissi kuchayib boradi, bu jarayon esa uning ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan murakkabliklarni hal etishdagi ishtirokini tobora faollashuviga olib keladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy va huquqiy normalarga, qonun-qoidalarga o'z ixtiyori bilan amal qilmog'i zarur. Erkinlik tushunchasi tarixda salbiy erkinlikdan, ijobiy erkinlik talqiniga uzoq tadrijiy rivojlanishdan o'tdi. Erkinlik tarixi shuni ko'rsatadiki, erkinlikka aniq, to'liq ta'rif berish juda mushkul. Madaniyatning umumiy elementi sifatida erkinlik shaxsning tanlashiga qarab ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz harakatlar xususiyati sifatida namoyon bo'ladi va huquq va axloq normalari, tabiiy omillar va axloqiy munosabatlar bilan o'zaro bog'liqdir.

Dissertatsiyaning **"Axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida erkinlik fenomenining transformatsiyasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida axborotlashgan jamiyatda erkinlik paradigmasining o'zgarish tendensiyalari va kibermakonda virtual erkinlikning shaxs identifikatsiyasi va ijtimoiy hayotga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, globallashuv sharoitida erkinlikning mazmuni transformatsiyaga uchrayotgani, uning shaxs identifikatsiyasi va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri tahlil qilingan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida erkinlik tushunchasini yetarli darajada aniqlab olish uchun birinchi navbatda axborot jamiyati tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahliliga murojaat qilish joizdir. Texnogen tsivilizatsiya rivojlanishining zamonaviy bosqichi muammolarini muhokama qilish ancha vaqtdan beri davom etmoqda. Shu jarayonda tegishli terminologiya shakllantirildi va ijtimoiy dinamikaning ushbu bosqichining muhim xususiyatlari

¹² Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016 – B. 132.

¹³ Беруний. Танланган асарлар (беш жилдлик). 3-жилд. -Тошкент: "Фан", 1982. –Б. 88.

aniqlandi. Shu nuqtayi nazardan olganda barcha farqlarga qaramay, “axborot jamiyati” tushunchasi ijtimoiy taraqqiyotning sanoat bosqichi bilan almashtiriladigan jarayonni tavsiflaydi. Shuning uchun bu tushuncha ko‘pincha “postindustrial jamiyat” tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi¹⁴. Bunda axborot jamiyati insoniyat taraqqiyotidagi alohida yangi davr sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar hukmronligi davrida erkinlikni boshdan kechirishga tayyor bo‘lmagan odam ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlarning o‘zgargan tabiatini anglamaydi, o‘zgarishlarning mohiyatini anglash va ularni real hayot bilan bog‘lashga vaqt topa olmaydi.

Tadqiqotchi fikricha, axborot asrida shaxsning ijtimoiy fazilatlaridan biri bu shaxsiy o‘zini namoyon qilish, “o‘zi uchun erkinlik” va “ozodlik”ni amalga oshirish, foydalanish istagidir. Aksariyat mamlakatlarda onlayn suhbat va bloglar va veb-saytlar mazmuni ustidan qonunchilik nazorati mavjud bo‘lsa-da, muloqot va axborot erkinligining ijtimoiy parametrlarini o‘zgartirish borasida hali ham ayrim kamchiliklar mavjud. Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonlar dunyoning turli burchaklaridagi har xil ma‘lumotlarga ega bo‘lishlari, axborot almashishlari va ayni vaqtda muloqot qilishlari mumkin. Axborot oqimlarini erkin yo‘naltirish uchun har qanday profilning zamonaviy mutaxassisi kompyuterlar, telekommunikatsiyalar va boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda ma‘lumotlarni olish, qayta ishlash va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Fan va texnikaning ilg‘or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi chegaralarni ochib, o‘zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga so‘zsiz katta hissa qo‘shmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko‘lamli axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, u hayotning deyarli barcha sohalari va inson faoliyatiga kirib borishi, xususan, axborot makonining globallasuvi, butun jahon rivojiga ta‘sir ko‘rsatayotgan omil sifatida e‘tirof etilmoqda¹⁵. E‘tiborli tomoni shundaki, mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlarning ehtiyoji ortib bormoqda. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o‘sishi, jamoatchilik, davlat hayotidagi turli xil yo‘nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, XXI asrdagi insoniyat taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo‘la oladi.

Dissertant fikricha, axborot texnologiyalaridan foydalanish bizga maxfiy ma‘lumotlardan foydalanish erkinligi kabi kibermakondagi erkinlikning amaliy jihatini o‘rganish imkonini beradi. Ruxsatsiz kirish axborot sohasida jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkin. Maxfiy ma‘lumotlardan foydalanish erkinligi muammosining axloqiy jihatini ushbu muammoning huquqiy va siyosiy jihatlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Kompyuter etikasining kodekslari bu masalaga alohida e‘tibor beradi, ammo bu sohadagi yetakchi korporatsiyalar maxfiylik siyosatini ishlab chiqishda yuqoridagi muammoga katta e‘tibor berishadi. Kibermakondagi erkinlik

¹⁴ Федотов Г.П. Рождение свободы // Федотов Г.П. Империя и свобода. Избранные статьи. - Нью-Йорк: Посев, 1989. - С. 19-56.

¹⁵ Rasulov A. Global jarayonlar va ma‘naviyat. //J. O‘zbekiston matbuoti, -Toshkent, 2008. -No 5-6. -B.8-9.

muammosining yana bir jihati internetga kirish va axborotni tarqatish erkinligi bo'lib, bu, ayniqsa, o'smirlar o'rtasida real muloqotni virtual muloqot bilan almashtirishga, voqelikning o'rnini bosishga olib keladi. O'z navbatida yangi muloqot muhiti, o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan faoliyat va muloqotning o'zgartirilgan algoritmlari bilan chegaralangan yangi virtual erkinlikni yaratadi.

Tadqiqotda infokratiya va netokratiya tushunchalarini yaratuvchilar onlayn muhitda erkinlik darajasini oshirish butun axborot jamiyatining o'ziga xos xususiyati ekanligini e'tirof etishlari ta'kidlangan. Bu ayniqsa, ma'lumotlardan foydalanish va uni tarqatish erkinligi muloqotning yangi xususiyatiga aylanib borayotgan ommaviy axborot vositalari sohasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu kontsepsiya mualliflari faoliyat va aloqaning muayyan turlarida erkinlik darajalarining oshishi, zamonaviy raqamli texnologiyalarning inson ongiga ta'sirini huquqiy tartibga keltirish masalasini yangilash, shaxsning tanlovi va xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini oshirish zarurligini aytib o'tganlar¹⁶. Shunday qilib, infokratiya va netokratiya konsepsiyalarini ishlab chiquvchilar erkinlik fenomeni umuminsoniylikning aniq belgilariga ega bo'lishini, ma'lum bir amalga oshirish sohasiga ega ekanligini va erkinlikning "ijtimoiy tanasi" shakllanishini tan oladilar.

Ijtimoiy hayot to'qimalariga singib ketgan yangi zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan erkin tanlashning yangi chegaralari shakllanmoqda, erkinlikni ijtimoiy hayotga tadbiq qilish yo'llari ko'paymoqda. Buning sababi shundaki, qat'iy ijtimoiy qoidalar va faoliyat normalari hali rivojlanmagan, xatti-harakatlar va muloqotni, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari munosabatlarining yangi sohasini nazorat qiluvchi huquqiy va axloqiy qoidalar belgilab qo'yilmagan. Shu nuqtayi nazardan, erkinlikni virtual muhitda tartibga solish usullarini yaratish va kuchaytirish talab qilinadi.

Tadqiqotchi an'anaviy yoki sanoat jamiyatidan farqli o'laroq, axborot jamiyatida oddiy ong darajasida erkinlik o'ziga xos belgilarga egaligini asoslab, bunday xususiyatlar quyidagilarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi:

1) erkinlik haqidagi fikrlarni shakllantirish jarayonini belgilaydigan ijtimoiylashuv va o'z shaxsiy shaxsiyatini izlash jarayonida individual faktorlar ta'sirining kuchayishi;

2) virtual erkinlik muloqot turlari bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning xatti-harakatini ham belgilaydi, chunki ichki tomonga o'tkazish davrida u e'tiqod mohiyatini oladi;

3) virtual erkinlik ziddiyatli xarakterga ega bo'lib, u tabiiy, ijtimoiy va internet muhitining qarama-qarshi ekanligini aks ettiradi;

4) erkinlik haqidagi g'oyalar virtual o'ziga xoslikning elementar qismiga aylanadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, erkin ongli faoliyatning yangi sohalari shakllanishi axborot muhitidagi axloqda, vujudga kelayotgan axborot

¹⁶ Игореvич К.Я. Социально - философский анализ трансформации феномена свободы в условиях техногенной цивилизации: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Москва: 2020. - С. 26.

qonunchiligida nazariy jihatdan o‘z aksini topgan. Bugungi kunda virtual olamda erkinlik hodisasining o‘zgarishlari quyidagi jarayonlarda namoyon bo‘ladi: 1) oddiy tushuncha darajasida; 2) huquqiy madaniyatning katta va kichik darajalarida; 3) nazariy ongni falsafiy aks ettirishning quyi darajasida. Virtual makonda erkinlikning yangicha talqinlari – virtual erkinlik dunyoqarashning bir qismiga aylandi va kundalik hayotda e’tiqod shakliga o‘zgarib, ular asosida ijtimoiy va individual harakatlar rivojlanadi.

Axborotlashgan jamiyatda insonning “virtual mavjudlik” holati erkinlikni yangi shaklda – fikr erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot xavfsizligi tushunchalari bir-biriga o‘zaro ta’sir etuvchi kompleks tizim sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda erkinlikning falsafiy mohiyati nafaqat tanlov huquqi bilan, balki axborot muhitida subyektning o‘z pozitsiyasini ongli asoslash, shaxsiy fikrni manipulyatsiyadan himoya qilish va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda erkinlik konsepsiyasining ahamiyati”** deb nomlangan va unda global integratsiya jarayonlarida jamiyat va shaxs erkinligining uyg‘unligi hamda demokratik jamiyat taraqqiyotida inson erkinligini ta’minlashning ekzistensial asoslari tadqiq etilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida erkinlik inson qadri sifatida fuqarolik jamiyatining ma’naviy va huquqiy asosini tashkil etishi, erkinlik adolat, mas’uliyat va bag‘rikenglik meyorlari bilan uyg‘unlashib, natijada insonning ma’naviy kamoloti va jamiyat barqarorligini ta’minlashi, milliy taraqqiyotning asosiy mezon sifatida namoyon bo‘lishi asoslab berilgan.

